

## ZAMONAVIY KOREYS ADABIYOTIDA QADR-QIMMAT TUSHUNCHASI

**Habibullayeva Sadoqat Baxtiyor qizi**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 3-kurs talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqola zamonaviy koreys adabiyotiga oid asarlardan ilhomlangan holda yozilgan bo‘lib, aynan o‘sha davr insonlariga bo‘lgan munosabat va insonning qadrini ko‘rsatib berishga bag‘ishlangan. Maqola mazmuni, asosan, Xyon Jin Geonning “Omadli kun” va Ke Yonmukning “Adada” hikoyasi orqali zamonaviy koreys adabiyotidagi ba’zi masalalarni ochib berish, insonning jamiyatda tutgan o‘rnini, inson qadri tushunchasini yoritishdan iborat.*

***Kalit so‘zlar:** Zamonaviy adabiyot, ijtimoiy davr, Janubiy Koreya, Yaponiya istilosi, xalq hayoti, ”Adada asari”*

Adabiyot insoniyat tarixida juda muhim o‘rin tutadi. Koreys xalqi og‘ir ahvolga tushib qolganidan so‘ng, ularning barchasi kundalik hayoti bilan bog‘liq amaliy ishlarga to‘liq berilib ketgan. Bunday sharoitda odamlarning o‘sha hayotdan tashqarida mavjud bo‘lgan, narsa haqida ya’ni, adabiyot haqida o‘ylashlari qiyin bir masala edi. O‘sha vaqtlarda insonlar faqatgina o‘z ehtiyojlari haqida o‘ylashgan. Yevropaliklarni olib qaraydigan bo‘lsak, ular faqatgina bilim va ko‘nikma bilan birgalikda, his-tuyg‘ularning mavjudligi va qadr-qimmatni ham tan oladilar. Adabiy evolutsiya taraqqiyot darajasi tarixiy sharoit va geografik muhitga qarab farqlanadi. <sup>12</sup>XX asrning 20-yillarida yaratilgan ko‘plab asarlar insonlarning, ayollarning azob-uqubatlari mavzusiga bag‘ishlangan. Ayollarning hayoti ko‘pincha ayanchli

<sup>12</sup> Li, Piter H. (1990) Zamonaviy koreys adabiyoti: antologiya.

tasvirlangan. Yaponiya hukumati kuchaygan sari, mafkuraviy majburlash, koreys adabiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Koreys adabiyoti Koreyada koreys yozuvchilari tomonidan yaratilgan adabiyotlar majmuasidir. Tarixning ko'p qismida u xitoy va koreys tillarida birinchi bo'lib, qadimgi yozuv transkripsiya tizimlaridan foydalangan holda va nihoyat koreys yozuvidan foydalangan holda yozilgan. U odatda klassik va zamonaviy davrlarga bo'linadi, garchi bu farq ba'zan noaniq bo'lsa ham. Xanmun xitoycha belgilar bilan koreys tiliga uning qadr-qimmatini berishga harakat qilganlar o'rtasida har doim keskinlik bo'lgan. Natijada, haqiqiy koreys adabiyoti deb hisoblanishi kerak bo'lgan munozaralar paydo bo'ldi. 1910-yildan 1945-yilgacha Yaponiya istilosi ostida ba'zi koreys olimlari til va adabiyotda sof koreys tilini tiklashga harakat qilishdi. Ular begona narsalarni olib tashlashga umid qilishdi. Ozodlikdan keyin boshqalar xitoycha belgilarda yozilgan asarlarni hisobga olmay, koreyslarning asl ruhi nima ekanligiga e'tibor qaratishga harakat qilishdi. Bugungi kunda koreys adabiyoti merosining bir qismi sifatida xitoycha belgilar va hanguldagi asarlarning ikkala turini ham qabul qilish bo'yicha umumiy kelishuv mavjud. Bundan tashqari, koreys adabiyoti dastlab og'zaki shaklda, ba'zan esa yoki hangul kabi aralash shaklda yozilganidan beri ilk davr an'anaviy og'zaki adabiyoti bo'yicha qiziqarli tadqiqotlar olib borilmoqda.

Garchi koreys zamonaviy adabiyoti, xususan, qisqa romanlar ko'rinishida bugungi kunda ko'proq qadrlanib xorijiy tillarga tarjima qilingan bo'lsa-da, klassik qismi muhim va katta ahamiyatga ega. Boshqa jahon adabiyotida bo'lgani kabi she'riyat ham birinchi adabiy shakllardan biri edi. Koreyslar har doim qo'shiq aytishni va raqsga tushishni yaxshi ko'rishgan va birinchi she'rlar kuylangan. Konfutsiy muhiti uzoq vaqt davomida she'riyatda ham, romanlarning boshida ham hukmronlik qilgan, biroq Sirxoq olimlari odamlarni zamonaviylikka ochib beruvchi satirik qisqa hikoyalar orqali yangi g'oyalarni singdirishda muhim rol o'ynagan. Zamonaviy koreys adabiyotidagi yaratilgan asarlarning barchasi aynan qaysidir bir masalani ochib berish uchun, yoki tahlil qilish uchun yoki bo'lmasa, ayni o'sha

davrdagi muhitni ochib berish uchun xizmat qiladi, ya'ni adabiyotda hech bir asar bejizga dunyoga kelmaydi. U ayni davrning yuzini ko'rsatib undagi razilliklarni, nohaqliklarni ko'rsatadi. Shuningdek u asarlar orqali inson tafakkuri, dunyoqarashi o'sadi. Ya'ni, u har bir insonning ma'naviyatini oshishiga, yanayam kengroq fikrlashga, bundan ham ko'proq bilimlarga ega bo'lish imkoniyatini beradi.

<sup>13</sup>Zamonaviy koreys adabiyotidagi qadr-qimmat tushunchalarini unga berilgan ta'riflarni zamonaviy nasr adabiyotini o'qib bilishimiz mumkin. „Omadli kun“ hikoyasi Koreyaning ijtimoiy hayotini yaqqol ochib bergan asarlardan biridir. Bu hikoya koreys adabiyotida, shuningdek, yozuvchining o'zining faoliyatida ham alohida o'ringa ega asardir. Sababi hikoya hech qanday bo'yoqlarsiz, tabiiy holda insonlarning hayotidan kelib chiqib, Koreya Yaponiya mustamlakasi bo'lgan yillarda yozilgan va nashr qilingan. Biz birgina mana shu asarlar orqali bir xalqning hayotini uning turmush tarzini, insonlarining tasavvuridagi o'y-hayollarini, jamiyatdagi muammolarni va mana shu millat insonlarining bir-biriga bo'lgan munosabatini, ular orasidagi mehr-muhabbat, qadr-qimmat kabi tushunchalarning qay darajada ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Har bir kambag'al inson uchun, ozgina ko'p pul ham u insonlarning qalbini quvonchga to'ldiradi. Qilgan ishidan zavqlanish, o'ziga bo'lgan ishonchini yana bir karra orttiradi, go'yoki ular bu orqali o'zlarini boshqalardan kam emasliklarini o'zlarining boshqalar kabi omadli ekanliklarini ko'rsatmoqchi bo'ladilar. Aynan o'sha kun omadlari kelgan kun ular uchun omadli kun hisoblanadi. <sup>14</sup>Qayg'uli zamon, qanchalik yoqimsiz tuyulsa, aynan shu azobni ichida yashash uni his qilish, o'z boshidan kechirishning o'zi naqadar azobli ekanligini his qilish qiyin. Hikoya bir qarashda osondek tuyuladi lekin, uning har bir sahnasi ortida katta bir achinish afsuslanish, kechikish, armon bor desak, adashmagan bo'lamiz. Hikoyani o'qib, jamiyatdagi insonlarning bir-biriga munosabatini, ayollarga bo'lgan hurmatning nechog'lik pastligini, ularga bo'lgan nohaqlikni, umumiy qilib aytganda, ayol kishining fikri, hech qanday ahamiyatga ega emasligini, uni jamiyatda hech qanday

---

<sup>13</sup> asosiy maqola: Janubiy Koreya adabiyoti

<sup>14</sup> KTLT (Zamonaviy koreys adabiyoti)

mavqega ega bo'lmaganligini ko'rishimiz mumkin. Yozuvchi ham aynan shu dolzarb mavzu orqali insonlarning o'rtasidagi oiladagi, munosabatni ochib bergan. Hikoyaning ba'zi joylarini o'qib inson hayratga tushadi. Ayolning qanchalik og'ir ahvoldaligi, bolasining qarovsiz qolganligi, achinarli oila muhiti, so'nggi umidning yo'qligi, ayolning armonlari ichki-kechinmalarini shoir ustalik bilan qalamga olgan. Bu ayolning ham boshqalar kabi baxtli hayot kechirishga, chiroyli yashashga haqqi bor edi. Lekin taqdir nasib qilmadi. Ayol o'z o'limi yaqinligini bilgan, shuning uchun ham eridan ketmasligini so'rab iltimos qiladi. Eri ham buni sezadi. Xotining oldida qolib, uning so'nggi onlarida yonida bo'lish o'rniga pulni afzal ko'radi. U o'zini hammadan omadliman deb o'yladi. Afsuski, vaziyat u kutgandek bo'lmadi. Yozuvchi ham ichida to'la dard bilan hikoya yozgan. U qalbning og'irli nuqtalarigacha yetib boradigan darajada mukammal qilib yozilgan. U jamiyatning undagi insonlarning shunday og'riqli achchiq, zaharni yutishlariga majbur qilgan. Kunning boshlanishi qahramonning eng baxtli xursandchilikka to'la kuni bo'lgandir, lekin kunning yarmidan keyin bu omad unga qanchalik qimmatga tushganini anglaydi. Bu baxtsizlik unga topgan pulidan ham qimmatroqqa tushganini u anglaydi.<sup>15</sup> XX asr koreys xalqi uchun qanchalik ayanchli va afsusli kunlar bo'lganligini, bu kunlar ularning boshiga qanday sinovlarni keltirganini, buni qanchalik og'riqli bo'lishi bir oz bo'lsada his qilindi.

<sup>16</sup>Shu asar bilan bir qatorda Ke Yonmukning "Adada" asari ham aynan mana shu XX asrda zamonaviy koreys adabiyotiga kirib kelgan asar hisoblanadi. Bu asar ham aynan ijtimoiy davr muammolarini insonlarning dunyoqarashini uning qadr-qimmatini bilan bog'liq tushunchalar ifodalanadi. Ya'ni, har bir yaratilgan asar yoki hikoya bejizga yaratilmaydi. U ayni bir davrning qaynoq nafasini aks ettiradi. Ya'ni insonlarning bir-biriga hurmatsizligi, pul uchun hamma narsaga tayyor bo'lish, ya'ni insoniy qadriyatlarining o'lganini ko'rish mumkin. Asar qahramoni "Adada" dunyoga nima maqsadda kelganligidan ham, kim uchun kerakli inson ekanligini ham bilmaydi. U hatto, o'z oila a'zolari tomonidan ham kamsitiladi, nazarga olinmaydi.

<sup>15</sup> The concept of value in modern korean literature

<sup>16</sup> North Korean literature

Ya'ni, atrofdagilar uni qadrlashmaydi. <sup>17</sup>Ya'ni, davrning ayni muammolari mana shu achchiq haqiqatlar orqali ochib berilgan. Jamiyatda insonning o'rni insonlarning bir-biriga befarqligi oddiy haqiqatlarda mujassam. Bu asar bir qarashda oddiy bir oilaning shunchaki oddiy turmush tarzini ifodalagandek ko'rinsada, ammo Ke Yonmuk bu orqali insonning qanchalik hurmatsiz qilinishi, unga bir oddiy buyumdek qaralishi, oilaning vayron bo'lishi, mehr-muhabbat, qadr-qimmat tuyg'ulari allaqachon insonlarning yodida ham yo'qligi, insonning qadri uning borligi hech qanday ahamiyatga ega emasligi yaqqol tasvirlangan. Bu kabi bir davrda yaratilgan asarlar judayam ko'p. Ularning syujeti, qahramonlari, voqealari turlicha bo'lsada, barcha yozuvchining ko'rsatmoqchi bo'lgan haqiqati va maqsadi yagona edi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, zamonaviy koreys adabiyotida yaratilgan asarlar orqali koreys xalqining, boshidan o'tkazgan qiyinchiliklarini, hayot murakkabliklarini, Yapon istilosi davrida xalqning qanaqa ahvolda, bo'lganligini, jabr ko'rganligining, guvohi bo'ldik. Shu kabi xatti-harakatlarini yozuvchilar mohirlik bilan qalamga olishgan. Bunda eng birinchi navbatda inson qadr-qimmati oddiy bir buyumdek ko'rilgani, oilada jamiyatda insonlarning bir-biriga sovuq munosabatda bo'lishi, ayollarga bo'lgan zulmni mana shu adabiyot orqali uning nozik chizgilari o'rganildi. Birgina oila misolida, millatning, jamiyatning tanazzulga yuz tutgani, umumbashariy qadriyatlarning qadrsizlanganini yozuvchining mahorati bilan dunyoga kelgan va undagi asl haqiqatlarni xalqiga yetkazib bergan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.**

1. Li, Piter H. (1990) Zamonaviy koreys adabiyoti: antologiya.
2. Asosiy maqola: Janubiy Koreya adabiyoti
3. KTLT (Zamonaviy koreys adabiyoti)
4. The concept of value in modern korean literature
5. North Korean literature
6. Montgomeri Charlz (2016 yil 5-mart) Koreya Adabiyoti.

---

<sup>17</sup> Montgomeri Charlz (2016 yil 5-mart) Koreya Adabiyoti.